

O'ZBEK TILIDAGI UNLILAR TIZIMI HAQIDA JADIDLAR FIKRI VA YONDASHUVI

Ganiyeva Dildora Sagdullayevna

*Samrqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali, pedagogika
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: *maqolada o'zbek tilida unli tovushlar tizimining taraqqiyot yo'li, tarixi, mavjud muammola, unli tovushlarning darslik va qo'llanmalarda berilishi, ayrim unli tovushlarning nazariy va amaliy jihatdan nomutanosibligi, talaffuzni o'rgatish bilan bog'liq qiyinchiliklar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha taklif-tavsiyalar bayond qilingan.*

Аннотация: *в статье описано пути развития узбекской системы гласных, ее история, существующие проблемы, изложение гласных в учебниках и пособиях, теоретическая и практическая несбалансированность некоторых гласных звуков, трудности связанные с обучением произношения и их устранения, представлены предложения.*

Annotation: *The language of the system of development, history, textbooks and textbooks of existing sounds, the theoretical and practical disproportionate, to eliminate them are described in the article.*

Kalit so'z va iboralar: *unli tovush, tovushlar tizimi, talaffuz, adabiy til va adabiy talaffuz, talaffuzi qiyin unlilar.*

Ключевые слова и фразы: *гласный звук, звуковая система, произношение, литературный язык и литературное произношение, труднопроизносимые гласные.*

Keywords and phrases: *a vowel system, pronunciation, literary language and literary pronunciation, difficult pronounced vowels.*

XX asr boshlari matbuoti sahifalari ko'zdan kechirilsa, eng ko'p bahs va munozaraga sabab bo'lgan mavzulardan biri milliy til masalasi ekanligini ko'rish mumkin. Abdurauf Fitrat dalillar va tahlillarga boy qator maqolalari, kitoblarida o'zbek tilining tarixda tutgan o'rni, qadimiyligi, qudrati, boshqa qardosh tillarga ta'sirini butun ko'lami bilan ochib berishga harakat qilgan.

Fonetikaga murojaat juda qadimdan boshlanib, u asosan nutq tovushlarini o'rganishga qaratilgan. Bu holat o'zbek tiliga ham mansub hisoblanadi. Umuman tilshunoslikda nutq tovushlari va ularning talaffuziga oid ko'plab qarashlar, maqola, monografiyalar yaratilgan.

Ilmiy adabiyotlarda ko'pincha o'zbek tilshunosligi o'tgan asrning 40-yillaridan keyin shakllana boshlagan degan noto'g'ri talqin ustuvor bo'lib keldi. Bunda o'zbek sho'ro tilshunosligi nazarda tutiladi, albatta. Aslida o'zbek adabiy tilining shakllanish davri XX asrning 20-yillaridan boshlangani tilshunoslar tomonidan e'tirof etilgan.

Jadidlarning adabiy til, alifbo, imlo bo'yicha olib borgan faoliyatini to'liq tadqiq qilish o'zbek tilshunosligining kemtik bo'lib turgan shu qismini to'ldirishi mumkin.

Qolaversa, boshqa turkiy tillarda mavjud 8-9 ta unli o'zbek tilida nima uchun 6 ta unliga tushib qolgani, unlilar qisqarishiga qanday omillar ta'sir qilgani kabi savollarga javob olinadi.

O'zbek tili unlilari miqdorini belgilashda o'sha davrda turli fi krlar mavjud edi. Bunday fi krlarning tug'ilishiga o'zbek tilida turkiy tillardagi har uch lahja(qarluq, qipchoq, o'g'iz)ning mavjudligi ham sabab bo'lgan, zotan, unda singarmonizm qat'iy amal qiluvchi shevalar ham, singarmonizm buzilgan shevalar ham bor edi. Bu haqda A.Alaviy shunday yozadi: *"Bunda eng avval hal qilinmag'i kerak bo'lg'an narsa – sayita(unli)larning adadini tayyin qilish, boshqacha aytganda, qaysi shevani asas tutush masalasidir, chunki bizning tilimizda bir qancha shevalar bardir. Va bular savtiy va sarfi y (funitiq va morfulujiy) jihatlarda bir-birlaridan anchagina ayriladurlar. Lekin bu shevalarni umumiyatla ikkiga bo'lmak mumkindir: sing'armo'nizimli va sing'armo'nizmsiz shevalar"*.

Turkiy tillarda, shu jumladan, o'zbek tilida unlilar miqdori tovushlar ohangi – singarmonizmga bog'liq bo'lganligi xususida aytib o'tildi. Bu davrda alifbo, imlo masalalari bilan jiddiy shug'ullangan Fitrat boshchiligidagi "Chig'atoy gurungi" edi. Bu tashkilotga o'z davrining taniqli ma'rifatparvarlari bo'lgan Shokirjon Rahimiy, Qayum Ramazon, Shorasul Zunnun, Cho'lpon, Elbek, Botu, Saidahmad Nazirov a'zo bo'lganlar. Aynan "Chig'atoy gurungi" arab yozuvini isloh qilish, adabiy til me'yorlarini shakllantirish bo'yicha jiddiy ishlarni amalga oshirgan.

Ibrohim Tohiriy fonetika haqida so'z yuritir ekan, nutq tovushlarining boshqa tovushlardan farq qilishini, ular inson organlarining murakkab xizmatlari natijasida paydo bo'lishini, ularni oddiy quloq orqali o'rganib bo'lmazligi, bu ning uchun maxsus laboratoriya asboblari zarurligini aytadi: *"Fanitika – tovush bilimi, tovushlarni va ularning tabiatlarini, aytilishini onglash uchun so'zlash a'zolarining ishlari bilan tanish bo'lish shart, chunki tildagi tovushlar do'mbira tovushlar emas, ular so'zlash a'zolarining juda qatlamli, murakkab xizmatlarining natijasi bo'ladi. Mujarrad tovushlarni oddiy quloq bilan o'rganish juda og'ir, hatto mumkin emas. Shuning uchun fanitika labo'rato'riyalarida tovushlarni ajratadurg'on minglarcha qurollar bor"*.

Olim milliy fonetikamiz hali ishlanmagani, hatto O'rta Osiyo davlat dorilfununida ham oddiy laboratoriya jihozlari yo'qligi, fonetikani jiddiy tadqiq qilish uchun shunday laboratoriyalar yaratish zarurligini, fonetikani o'zi bilmasdan o'quvchiga bu haqda bilim berishga harakat qilish o'ta kulgili holat ekanligini afsus bilan yozadi: *"Melio'ranskiy kabi olimlarning labo'rato'riyasida qator tilni tekshirib yasalg'an jadvallari bor. Biroq ular o'z tilimizga hamma tafsiloti bilan chiqqan emas. O'rta Osiyo davlat dorilfununida bu to'g'risida hech narsa yo'q. Hatto o – o, a – a kabi juda aniq eshitiladurg'an tovushlarni ajratib, ularning vaziyatini ko'rsaturlik hech bir, hatto oddiy qurol ham yo'q. Fanitikamizni ishlash kerak. Ishlagandan keyin yaxshilab o'rganish kerak. Bo'lmasa o'zing ham yaxshi tushunmasdan o'quchig'a tu shuntiraman deb azob chekish bekor gap"*. Shuningdek, arab yozuvidagi uch unlili imlodan voz kechish, uni 6 imloga keltirish ham juda katta tortishuv, janjallar bilan bo'lgan. Bu haqda Elbek shunday yozadi: *"6 cho'zg'i (unli)ning o'zbek tiliga yetarli javob bera olmaslig'i*

oldinroq sezilmasa-da, so'ngg'i choqlar, oyniqsa, yangi alifbega ko'chish oldida ochiq sezila boshlag'on edi. Faqat u choqdag'i yangi alifbega ko'chish oldidag'i cho'zg'i janjali 9 ustida emas, 6 ustida bo'lub kelganidan, to yangi alifbega ko'chmaguncha bu to'g'rida so'z ochish og'ir edi. Harf illatchilarining shovqini hali bosilmag'on bir davrda 6 dan 9 ga ko'chish tugil, shu 6 ning o'zini saqlab qolish katta muvaffaqiyat edi. Mana shu ning uchun-da 1926 yilg'acha 9 cho'zg'i ustida og'iz ochquchilar oz ko'rindi, to'g'risi, bu masala ustida ortiqcha bosh qotirilmadi".

Ma'lumki, 1925-yildan keyin barcha turkiy xalqlarda kabi O'zbekistonda ham lotin yozuvini targ'ib qilish, lotin alifbosi asosida o'zbek milliy alifbo sini yaratish, unli, undoshlar miqdorini belgilash yuzasidan jadidlar o'rtasida bahs-munozaralar kuchaydi. Mavzu bo'yicha Toshkent, Samarqandda kengash, qurultoylar bir necha marta o'tkazilgan bo'lsa-da, munozaralarning asosiy maydoni gazeta va jurnallar edi. N.Yangiboyevaning ta'kidlashicha, "...bu davrda "Inqilob", "Bilim o'chog'i", "Uchqun", "Maorif va madaniyat", "O'zgarishchi yoshlar", "Maorif va o'qitg'uchi", "Yer yuzi" va "Alanga" kabi jurnallar faoliyat ko'rsatgan bo'lsa-da, tilshunoslikka oid maqolalar, asosan, "Maorif va o'qitg'uchi" jurnalida e'lon qilinar edi. Albatta, 20-yillardagi o'zbek adabiy tili, uning grafi k sistemasi to'g'risidagi munozaralarni yoritishda oyida bir marta chiqadigan bu jurnal o'z davrida kata hurmat va e'tiborga molik bo'lgan. Undagi tilshunoslikka oid maqolalar adabiy til, uning tayanch dialekti, fonetika, grammatika, grafika va imlo kabi masalalariga bag'ishlangan, ulardagi nazariy va amaliy xulosalar o'zbek tilshunosligining shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilgan".

Mashhur tilshunos Y.D.Polivanov o'zining "Fonetika tashkentskogo govora" asarida turkiy tillar fonologik tizimida ro'y bergan konvergensiya (birlashish), divergensiya (bo'linish) hodisalarini ochib berish asosida Toshkent dialektida singarmonizm qonuniyati yo'qolgani, olti unli fonema mavjudligini ko'rsatadi. O'zbek yozuvining ham shunga asoslanishi lozimligini ta'kidlaydi. Y.D.Polivanov va Botu singarmonizmga qarshi bo'lgan, savod chiqarishni yengillashtirish uchun hamda tilning taraqqiy etishi madaniy markazlarda bo'lishini ta'kidlab, 6 unlini qat'iy himoya qilganlar. Lekin Fitrat, Abdulla Alaviy, Elbek kabi ko'plab ma'rifatparvarlar o'zbek

adabiy tili vokalizmini belgilashda singarmonizmli qishloq shevalari xususiyatidan kelib chiqish kerak, degan fikrni ilgari surishadi.

Ma'lumki, 1926-yildagi Boku konferensiyasi barcha turkiy xalqlarning lotin yozuviga o'tishi va barcha uchun umumiy alifbo yaratish bo'yicha qaror qabul qiladi. Konferensiyadan so'ng turkiy xalqlar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlar hisobga olingan holda alifbo yaratiladi. Mazkur alifboda singarmonizm qonuniyati asos qilib olinib, unlilar miqdori 9 ta deb belgilanadi. Shuning ta'sirida Fitrat ham yuqoridagi fikrlaridan qaytib, o'zbek tilshunosligi muammolariga bag'ishlanib yozilgan "Sarf" asarida 9 ta unli haqida bahs yuritadi. Fitrat o'zbek tilining turkiy tillar tarkibidagi bir til sifatida barcha turkiy tillarda u yoki bu darajada mavjud bo'lgan singarmonizm qonuniyatini aks ettirishini, bu holat esa shahar shevalarida fors-tojik tilining ta'sirida buzilganini, shuning uchun umurturkiy fonetik xususiyatini ko'proq saqlab qolgan qishloq shevalariga tayanish juda to'g'ri ekanini ta'kidlaydi. Ana shu asosda o'zbek tilida unlilarning

“yo‘g‘on”lik va “ingichka”lik belgisi farqlovchi belgi vazifasini bajarishi va shu belgiga ko‘ra unlilar ikki qatorga bo‘linishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, yo‘g‘on-ingichkalik belgisi bo‘yicha farqlanishga ega bo‘lmagan “e” unlisining mavjud ekanini, jami o‘zbek tilida 9 unli fonema borligini bayon qiladi.

Tilshunos olim Temur Xo‘jao‘g‘li Fitratning unlilar bo‘yicha qarashlari xususida to‘xtalib, muallifning “Sarf” asarining o‘zida mavjud bo‘lgan uchta nashri bo‘yicha fikr yuritadi. Asarning birinchi nashrida unlilar sonini 6 ta ko‘rsatgani, bunga qanday sabab bo‘lganini izohlaydi. Muallifning fikricha, *“Fitrat soddalashtirilgan arab alifbosida nuqtasiz (harakatsiz) vov (و harfi bilan ham o, ham o tovushlarini birgalikda, ustida o‘tra bilan, nuqtali vov (ؤ) bilan esa u bilan u unli tovushini ko‘rsatishga harakat qilgan bo‘lishi mumkin. Fitrat shu arab alifbosi bilan yopiq e (é) bilan ochiq ä unli tovushlarini tovushlarini faqat hamza o bilan ko‘rsatgan”*.

Bizningcha, Fitrat yuqorida aytib o‘tilgan Toshkent o‘lka qurultoyida “alti cho‘zg‘ili imla qavul etilsin” deb unlilar miqdorini aniq aytib o‘tgan. Bunday fikrga kelishiga tatar tilshunoslari ta’sir ko‘rsatgani ham aytib o‘tildi, ya’ni olti unlini yoqladi degani uning tovushlar uyg‘unligini inkor qildi deb tushunilmasligi kerak, chunki u o‘zbek tilida unlilar uyg‘unligi mavjudligini hamisha e’tirof etgan.

Ashurali Zohiriyning “Qizil O‘zbekiston” gazetasi 1929-yil 29-, 31-mart sonlarida e’lon qilingan “Til va imlo masalasi” maqolasida adabiy til, imlo, atama, singarmonizm va o‘zbek tilining boshqa masalalari to‘g‘risida bahs yuritilgan. Mazkur maqolada olim unlilar masalasiga ham alohida to‘xtalib o‘tadi. Bu haqda tilshunos olim A.Nurmonov shunday yozadi: *“Ashurali Zohiriy o‘zbek adabiy tilida oltitamas, to‘qqizta unli mavjudligini, lotin alifbosida ham ana shu to‘qqizta unli uchun harf olish kerakligini aytadi. Garchi muallif bu fi krini dalillar asosida isbotlamasa ham, Farg‘ona (Andijon, Marg‘ilon, Qo‘qon kabi) shevalarida ma’no farqlash uchun xizmat qiladigan to‘qqizta fonema borligini his qiladi. Darhaqiqat, unlilarning tanglay belgisi Farg‘onaning bir*

qator shevalarida bugungi kunda ham farqlovchi belgi bo‘lib xizmat qiladi va fonologik qimmatga ega. Shu bilan birga, Ashurali Zohiriy ayrim muallifl arning to‘qqiztadan ortiq unli fonemalarga egaligi haqidagi fikrlarining yetarli isbotlanmaganini tanqid qiladi”.

Adib merosini tadqiq qilgan T.Tog‘ayev ham yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi: *“A.Zohiriy o‘zbek tilida unlilar haqida to‘xtalar ekan, ularning sonini to‘qqizta deb belgilaydi. Bunda olim “sof o‘zbek tilida singarmunizm borligi”ga asoslangan Uning fikricha, “singarmunizm bilan cho‘zg‘ining to‘qqiztalig‘i bir-birig‘a qattiq bog‘lang‘on”. A.Zohiriy unlilar masalasida o‘zbek shevalarida ma’no farqlash uchun xizmat qiladigan 9 ta unli fonema borligini nazarda tutgan. U unlilar 6 ta deb qarovchilarga qarshi chiqib, “uni qisqartirish kerakligi to‘g‘risida so‘z ochish mantiqsizlik va to‘qqizta bo‘lishining asosini tushunmaslikdir” deb ta’kidlaydi. Shu bilan bir qatorda, unlilar sonini 9 tadan ko‘p deb qarovchilarni ham tanqid qiladi.*

Yuqoridagi ma’lumotlardan shunday fikr kelib chiqadiki, o‘zbek tili qonun-qoidalari haqida ilmiy qarashlar endi shakllanayotgan davrda, ko‘pchilik



mutaxassislarning o'zla rida ham nazariy bilimlarning yetarli emasligi, shu asosda fikrlar ning xilma-xilligi ko'zga tashlanadi.

Bu xususida H.Jamolxonov shunday yozadi: "...hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmini belgilash yuzasidan olib borilgan dastlabki ishlarda bu masalaga fonema nazariyasiga tayangan holda yondashilmagan, fonema bilan uning nutqdagi real ko'rinishlari o'zaro qorishtirilgan, hatto 6 unlili vokalizm tarafdorlari qarashlarida ham bu masalaga ilmiy-nazariy asosda emas, intuitiv sezgi asosidagina yondashilganligi ko'zga tashlanadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ularda o'z fikrlaridan chekinish holatlari tez-tez ko'zga tashlanadi". Ulardan farqli ravishda, Ibrohim Tohiriy tovush va fonemani farqlaydi, har qan day tovush fonema bo'la olmasligini aytadi: "Odatda butun madaniy tillar ning yozuvida fanitika so'zini shart bilangina olib, fanemalargagina harflar yasaladi, chunki amaliy yozuvning hech bir

harfi ovoznı to'g'ri bera olmaydi. Ul yuqorida aytilgan ravishda bir-biriga yaqin bir necha tovushlar ning taxminiy ishorasigina bo'lib yuradi. Men Elbek, Q.Ramazon, Yo'ldosh, G'ozi Olim o'rtoqlarning so'zlariga e'tiroz qilmayman. Cho'zg'ilar (unlilar) balki ular deganchadir, yoki ko'brakdir. Men faqat shuni aytaman: ruslarning til olimlari, til labo'rato'riyasida uzoq yillar ishlash natijasida rus tilida o'n ming tovush

borlig'ini isbot qildilar. Bizda ham kerak unli va kerak unsiz tovushlarning sonlari siz aytgandan ham juda ko'p martabalar ortiqdir. Biroq fonemalar ko'b emas".

Abdurahim Yo'ldosh unlilar masalasida ham 9-10, hatto 14, 15 unli kabi fikrlar bo'lgani, eng muhimi, Yangi alifbe markazqo'mining 1-plenumida 9 unli qarori qabul qilingani eng to'g'ri qaror ekanini aytadi. Mazkur qaror asosida qardosh turkiy tillardagi kabi bir tovushga bir shakl masalasi, ya'ni har bir eshtilgan tovushga bir shakl masalasi ilmiy asosda hal qilindi. So'zlarimizni to'g'ri yozishga imkon berdi, ilgari arab harfi bilan yozganda, 50 foiz xato qiladigan o'quvchilar endi 70-80 foizgacha to'g'ri yozishni o'rgandi deydi. U o'zbek tilida 9 ta unli bor ekanligi, uni kamaytirish esa har bir tovushga bir shakl berish asosiga qarshi turishdir deydi: "Biz shuni aytamizkim, 9 cho'zg'i(unli)ni azaytirish – har bir tavushga'a bir shakl berish asosiga qarshi, 9 cho'g'i har bir o'zbekning og'ushidan chiqaturg'an har bir tavushqa to'la javab beradi. Shuning uchun biz bu asosdan bir qadam arqag'a qaytmaslig'imiz kerak".

S.Ibrohim o'g'li 6 cho'zg'i tarafdorlarining da'volari ilmiy, asosli bo'lmaganidan bunday fikrga qat'iyan qo'shilib bo'lmasligi, bizga 9 emas, ko'brak cho'zg'ilar kerakligini aytadi: "Imlada singarmaniya asos qilib alingandan keyin 6 cho'zg'i to'g'risida so'zlab o'tirishning hajati yo'q. Hatta hozirgi 9 cho'zg'i ham mening ag'zimdan chiqqan tavushlarga to'la javab bera almaydi. Agar imkon bo'lsa, cho'zg'ilarni 14 ga chiqarish kerak (Elbekning misallari bunga dalil). 6 cho'zg'i bizning til, imlamizni mustaqil tartibga – yo'lg'a salib alishimizga imkon bermaydi".

Tadqiqotchilarning fikricha, 9 unlili vokalizm tarafdorlarining o'sha yillarda faollashuvida 1926-1927-yillarda yuzaga kelgan "Birlashgan (mushtarak) turk alifbosi" yaratish g'oyasining ham ta'siri bo'lganligi shubhasiz, chunki bunday mushtarak alifboning yaratilishida ko'pchilik turk-tatar tillariga xos bo'lgan singarmonizm qonuniyatining hisobga olinishi taqozo qilinardi, ayni paytda, bu g'oya eski o'zbek

adabiy tili vokalizmiga hamda hozirgi ayrim qishloq shevalariga xos bo'lgan contrast juftliklarni adabiy til uchun me'yor deb belgilash imkonini ham berardi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, 9 unli masalasida jadidlar o'rtasida yagona fikr mavjud emas edi. Bu xususda Botu shunday yozadi: *"Biz mushtarak alifbe qabul qildik; to'qqiz cho'zg'i oldik, biroq janjal butunlay yechilgani yo'q. To'qqiz cho'zg'ining ti limiz uchun ozligini da'vo qiluvchilar bo'lgani kabi, bularning ko'pligini isbot etuvchilar ham bor. O'zbek tili ning xususiyati, taraqqiysi o'zbek yangi alifbesida bir qancha yangiliklarni to'ldirishni talab qilar ekan, mutaassiblik qilish yaramaydi. Biz, modomiki, yangi alifbe – o'zbek alifbesi, birinchidan, mehnatkashlarning savodsizligini bitirishga xizmat qiladi va shunday bo'lishi kerak, der ekanmiz, amalda ham shu tomon borishimiz kerak. Bir necha yillik tajribamiz hozirgi to'qqiz cho'zg'i omma uchun so'ng darajada og'irlik kelishini ko'rsatdi".*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy fonetikasi. Toshkent – 2006.
2. Jamolxonov H. O'zbek tilining nazariy fonetikasi. Toshkent – 2009.
3. Mirtojiyev M. O'zbek tili fonetikasi. Toshkent – 2013.
4. Ne'matov H. O'zbek tili fonetikasi. Toshkent – 1992.

